

**QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)**



**PEDAGOGIKA
PEDAGOGY**

O‘TMISHDAN HOZIRGI KUNGACHA GITARA CHOLG‘U ASBOBINING YASALISHIDAGI O‘ZGACHALIKLAR

Dauletbaev Talgat Qilishbaevich
O‘zbekiston davlat konservatoriysi
Nukus filiali “Sotsial-gumanitar va ijtimoiy fanlar” kafedrasи mudiri

Annotatsiya: Tarixiy davrlar davomida ko‘plab faylasuflar, davlat arboblari musiqaning hayotdagi o‘rni va ahamiyatiga e’tiqod qilib kelgan va o‘z quvonch va qayg‘ularini kuylar orqali ifodalagan. Har bir xalqning o‘ziga xos musiqasi va cholg‘u asboblari bor. Musiqa ta’limining muhim yo‘nalishlaridan biri bu cholg‘u asboblarni o‘rgatishdir. Ushbu maqolada gitara cholg‘u asboblari tarixi haqida so‘z yuritiladi. O‘zining chuqur ildiz otgan tarixi, polifonik musiqaga yaroqliligi, ovozining go‘zalligi bilan vaqt o‘tishi bilan mashhur bo‘lib ketgan gitara, o‘tmishdan hozirgi kungacha havaskor musiqachilar tomonidan tez-tez tanlanadigan asbob hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda adabiyotlarni ko‘rib chiqish usuli qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida gitara bo‘yicha adabiyotlar (kitoblar, maqolalar, tezislar, maqolalar, internet resurslari) o‘rganilib, gitara cholg‘usining tarixiy rivojlanishi haqida ma’lumotlar berildi.

Kalit so‘zlar: Torres gitara, ustaxona, Madrid maktabi, Kataloniya maktabi, Fransuz maktabi, Granada maktabi, Nemis maktabi.

РАЗЛИЧИЯ ГИТАРОСТРОЕНИЯ ОТ ПРОШЛОГО ОТ НАСТОЯЩЕГО


Аннотация: На протяжении всей истории многие философы и государственные деятели верили в роль и значение музыки в жизни и выражали через песни свои радости и горести. У каждого народа есть своя музыка и музыкальные инструменты. Одним из важных направлений музыкального образования является обучение игре на музыкальных инструментах. Эта статья об истории гитарных инструментов. Благодаря своей глубокой истории, пригодности для полифонической музыки и красоте звучания гитара со временем стала популярной и излюбленным инструментом музыкантов-любителей от прошлого до настоящего. В данном исследовании был использован метод обзора литературы. В ходе исследования была изучена литература по гитаре (книги, статьи, диссертации, статьи, интернет-ресурсы) и предоставлена информация об историческом развитии гитары.

Ключевые слова: гитара Торреса, мастерская, Мадридская школа, Каталонская школа, Французская школа, Гранадская школа, Немецкая школа.

DIFFERENCES IN GUITAR BUILDING FROM THE PAST TO THE PRESENT

Annotation: Throughout history, many philosophers and statesmen believed in the role and importance of music in life and expressed their joys and sorrows through songs. Every nation has its own music and musical instruments. One of the important areas of music education is the teaching of musical instruments. This article is about the history of guitar instruments. With its deep-rooted history, its suitability for polyphonic music, and the beauty of its sound, the guitar has become popular over time and has been an instrument of choice for amateur musicians from the past to the present. A literature review method was used in this study. In the course of the research, literature on the guitar (books, articles, theses, articles, internet resources) was studied and information was provided about the historical development of the guitar.

Keywords: Torres guitar, workshop, Madrid school, Catalan school, French school, Granada school, German school.



20-asrdagi barcha gitara maktablari Antonio de Torres tomonidan yaratilgan gitara va ixtirolardan kelib chiqqan. A.Torres 1817-yilda Andalusiya viloyatidagi Almeriya shahrida tug‘ilgan.

Yoshligida duradgorlik ustaxonalarida ishlagan. Torres shon-shuhratining tarqalishi u 1869-yilda Fransisko Tarrega sovg‘a qilgan gitara bilan bog‘liq va bu gitara bugungi kungacha saqlanib qolgan.

Torres gitara yaratishni butunlay boshqa sohaga olib kirayotganda, gitara tovushining chuqurligi, hajmi va rang-barangligi bo‘yicha tadqiqotlar va yangilanishlar qildi. Ovoz hajmi va ovoz balandligi aslida bir-biri bilan chalkashib ketadigan tushunchalardir. Ovoz balandligi jismoniy jihatdan “dB” birliklarida o‘lchanganda, tovush to‘lqinining eng yuqori nuqtasi hisobga olinadi. Hajim esa havo bo‘shlig‘ida tovush to‘lqini egallagan bo‘shliq. Shu sababli, Antonio de Torresning istagi gitara ichidagi tovushlarning havo bo‘shlig‘ida chuqur va katta to‘lqin uzunliklariga ega bo‘lishi edi. Va u muvaffaqiyatga erishdi.



1-shakl

Torresning hayoti davomida gitara Ispaniya ko‘chalarida, qahvaxonalarida va barlarida o‘ynaladigan ko‘ngilochar asbob edi va u buni o‘zgartirish uchun harakat qildi. Torres o‘zining birinchi asbobsozlik tajribasini Xose Pernas bilan ishslash orqali oldi. U yoshligida Pernasning ustaxonasida ishlagan. O‘sha paytda Xose Pernas ustaxonasida nok shaklidagi dumaloq orqasi bo‘lgan asbob ishlab chiqarilgani ma’lum edi. Bulardan tashqari eng muhimi, Torresga yangi gitara yasashga rahbarlik qilgan shaxs Julian Arkas edi. Torres Julian Arkasning maslahati bilan yangi gitarasini shakllantirdi.

Torres 1850-yilda musobaqada g‘olib chiqdi. Ushbu musobaqa Ispanyaning Sevilya shahrida bo‘lib o‘tdi. Bu tanlovda u yasagan gitara dekorativ stilizatsiya san’ati jihatidan yog‘ochga ishlov berish san’ati mahorati yuqori bo‘lgan. Ushbu yog‘ochga ishlov berish san’ati uyg‘onish davri Evropasida, ayniqsa Fransiyada juda qimmatli bezak san’ati sifatida o‘z o‘rnini egalladi. Ushbu musobaqa tufayli u butun Evropada mashhur bo‘ldi. Torres qayg‘uli tajribalarga to‘la hayot kechirdi. O‘sha paytdagi “Karlist” qo‘zg‘oloni va qashshoqlik yillari uning oilasida o‘limga olib keldi. Birinchi xotini va bolalarini kasalliklardan yo‘qotgan Torres, Xitoy bozorining ochilishi bilan u gitara yasashdan tanaffus olishga majbur bo‘ldi va yotoqxonani boshqara boshladи.



**2-rasm, Julian Akras Torres
gitarasi bilan**



**3-rasm, Fransisko Tarrega
Torres gitarasi bilan**

Torres hayoti davomida gitara yasashda ikki xil davrga ega. Birinchi davr “First Epoch” 1852-1869 yillar, ikkinchi davr “Second Epoch” 1875-1892 yillar oralig‘idadir. Bugungi kunda saqlanib qolgan gitaralar soni, 1-davrdan (FE) 39, ikkinchi davrdan (SE) 49 dir. Hammasi bo‘lib 88 ta gitara mavjud. 6 yil davomida gitara yasashdan tanaffus qilgan. Rasmiylarning ta’kidlashicha, dastlabki gitaralar yaxshi ovoz chiqaradigan gitaralar edi.

Torresning mashhur mijoji F.Tarrega Torres gitarasini 20 yil chalgan. Biroq, Torres moliyaviy imkoniyatlar va tan olinishi nuqtai nazaridan Tarrega taqdim etgan imtiyozlarni olmagan. Torresning eng yaqin do‘sti Julian Arkas edi. O‘sha davrning og‘ir sharoitlarida, Julian Arkas gitaradan voz kechganida, Torres ham gitara yasashdan tanaffus oldi.

Torresning bugungi gitaraga nima hissa qo‘sghanini aytib o‘tsak, maydon o‘lchamini Dionisio Aguado va Fernando Sor chalgan gitaralarga nisbatan 20% ga kattalashtirdi. Ushbu

o‘lcham qopqoq ostida joylashgan yelpigich shaklidagi mustahkamlik majmuasi tomonidan quvvatlanadi. Gitara “8” ga o‘xhash shaklga aylandi. Gitaraga geometrik nazariyalar va kuch nazariyalar asosida o‘zgarishlar kiritdi. Kuchli, hajmli ohanglarga qo‘s Shimcha ravishda, u gitara uchun dinamik rang diapazoni, keng musiqiy ifoda va qo‘sishchilik xususiyatlarini olib keldi.

Antonio de Torres 1892-yilda Kanadada o‘tkir ichak infektsiyasi natijasida vafot etdi.

XX asr gitara yasash maktablari haqida gapirganda, aslida, ko‘ramizki bugungi gitaralar yasalishining boshida maktablar yo‘q edi, uyg‘onish va oldingi davrlarda bo‘lgani kabi, ustaxonalarda, usta-shogird munosabatlari shaklida rivojlanadi. Bu holat shuni ko‘rsatadiki, o‘sha paytda san’at akademiyalari o‘rniga ustaxonalar bo‘lgan va bu ustaxonalarda faqat cheklangan miqdordagi iste’dodlilar ishslashga haqli edi.

Shunday ekan, XX asrning dastlabki uch choragida gitara yasashda ham xuddi shunday holat yuz berdi. Vaqt o‘tishi bilan gitara ustaxonalarida o‘qitilgan odamlar avval usta yordamchisi, keyin usta bo‘lishdi va oxir-oqibat o‘z nomlari bilan ustaxonalarini ochishdi. Albatta, bu holat o‘rganilgan texnikalarning sir bo‘lib qolishiga va har bir yangi ustaning tug‘ilishi bilan ortib borayotgan maxfiy bilimlar xazinasiga aylanishiga imkon berdi.

So‘ngi davrlarda gitara cholg‘u asbobini yasashni o‘rgatadigan maktablar paydo bo‘la boshladi. Eng muhim maktablardan biri Madrid maktabidir. Madrid gitara yuragi desak, bu gap xato bo‘lmaydi. Madrid gitara maktabining eng muhim ustalaridan biri Jose Ramirez I va Manuel Ramirezdir. Birinchi Ramirezlar aka-ukalar edi. Ramirez I gitara yasashni Fransisko Gonzales Zaragozadan o‘rgangan.

Madrid maktabining asoschilari bo‘lgan bu kishilarning ustaxonasida ko‘plab ustalar tayyorlandi. Ulardan eng taniqlilari Santos Ernandes, Domingo Esteso, Enrike Garsiya, Fransisko Simplicio, Hernadez va Aguadolardir. Ramirez tezda butun Ispaniyada mashhur bo‘ldi. Ramirezlarning eng muhim xususiyatlaridan biri shu ediki, ular o‘z ustaxonalarida ko‘plab shogirdlar tayyorlab, shu insonlar orasidan iqtidorli kishilarni tanlab olganlar. Bu an’ana butunlay ustoz-shogird munosabatlariga bog‘liq bo‘lib, avlodlar davomida davom etdi. Ustaxonada ta’lim olgan ustalar keyingi yillarda o‘z ustaxonalarini ochish imkoniga ega bo‘ldilar.



4-rasm, Madrid maktabi

Ramirez I va Manuel Ramirezdan keyin Ramirez II bu kasbni va ustaxona faoliyatini davom ettirdi. U Ramirez I ning to‘ng‘ich o‘g‘li. Ramirez II shogirdlikni yoshligida boshlagan va u ham yaxshi gitara chalgan. Biroq, Ispaniyadagi fuqarolar urushlari tufayli u ko‘p gitara ishlab chiqara olmadi. U 1957-yilgacha yashadi. U tayyorlagan ustalar orasida flamenko gitara olamining muhim gitara ustalari, Arkangel Frenandez va bor.

Ramirez II dan keyin Ramirez III ustaxona faoliyatini davom ettirdi. Ramirez III XX asr gitara tarixidagi eng muhim shaxslardan biridir. U Amerikadan Western Red Cedar tovush qopqog‘ini olib kelgan va uni birinchi marta klassik gitaralarda qo‘llashni boshlagan ishlab chiqaruvchi ustadir.

Ramirez III ko‘plab muhim ustalarni tayyorlagan, ulardan ba’zilari Paulino Bernabe, Feliks Manzenero, Manuel Kontreras, Teodora Pereslardir.

Va nihoyat, Ramirezlar oilasining so‘nggi a’zosi Ramirez IV gitara yasashni davom ettirmoqda. Bugungi kunda Amalia Ramirez dunyoning ko‘plab mamlakatlari uchun Ramirez brendini ishlab chiqaradi. Albatta, bugungi Madrid maktab gitaralarining boshqa ko‘plab mashhur ishlab chiqaruvchilari bor. Ammo bularning barchasini shu yerda joylashtirish mumkin emasligi sababli, umumiy Madrid gitaralarining tovush xususiyatlarini aytib o‘tish kifoya deb bildim.

Madrid gitaralari asosan Ispan kedr daraxti (Cedrela odorata) qoplamlari bilan mashhur. Shu sababli, ular katta hajmli va rangbarang ovoz chiqaradigan gitaralardir. Ular keng to‘lqin uzunligiga ega va ayniqsa, ularning o‘rtalari diapazonidagi tovushlari juda qaynoqdir.

Bundan so‘ng gitara ishlab chiqarishni o‘rgatadigan maktablar boshqa yerlarda ham paydo bo‘la boshladи. Bunday maktablardan biri bu-Kataloniya maktabidir. Kataloniya maktabi vaqt o‘tishi bilan Madridda paydo bo‘lgan gitara yasashni shimolga olib kelgan ba’zi ishlab chiqaruvchilarining ko‘chishi natijasida shakllangan. Ular orasida asosiysi Enrike Garsiyadir. Enrike Garsiyaning Kataloniya maktabi va Janubiy Amerikada, xususan, Argentinada gitara yasash san’atiga qo‘sghan hissasi juda ko‘p. Garsiya Manuel Ramirezning shogirdlaridan biri edi. Biroz vaqt o‘tgach, u Madriddan Barselonaga ko‘chib o‘tishga majbur bo‘ldi. U Barselonada yangi gitarani keng tadbiq etishda qiyinchiliklarga duch keldi. Ammo u Amerikaga borib, u yerda mukofotlar oldi. Keyinchalik uning shuhratni butun Amerika qit’asiga tarqaldi. U Kataloniyada shogird tayyorladi va bu shogirdi Shimoliy Ispanyaning yulduziga aylandi. Bu Fransisko Simplitsiodir. Simplitsio gitaralari yog‘och bezak san’atiga to‘la gitaralardir.

Bugungi kundagi fransuz gitara maktabi bilvosita o‘z shon-shuhratiga Julian Gomez Ramirezdan qarzdor. Frantsiyadagi bugungi gitaraning birinchi ustalaridan biri Julian Gomez Ramirezdir. Julian Gomez Ramirez Ramirez I ning shogirdi sifatida gitara yasashni boshladи. Parijda faoliyat yuritishdan oldin u Manuel Ramirez bilan birga ishlagan. U Fransiyada Torres tipidagi gitaralarni ishlab chiqara boshladи. Julian Gomez Fransiyada qo‘nim topganidan so‘ng Ramirezlarning shuhratni butun Yevropaga tarqala boshladи. Fransuz

zamonaviy san’at ixlosmandlari Parijdagi juda kichik yer osti do‘konida ibtidoiy sharoitda gitara yasayotgan Julianni ko‘rib, hayratda qolishdi. Julian ba’zan joy yo‘qligi sababli gitaralarini do‘koni oldidagi yo‘lakda yasar edi.

Rassom va san’at ishqibozi Robert Buche 1936-yilda birinchi marta Julian Gomez ustaxonasiga tashrif buyurgan. U skripka, pianino va gitara chalga. 1938-yilda Buche Julianga gitara buyurtma qildi. Keyinchalik, Julianga tashriflari chog‘ida u gitara yasashga qiziqib qoldi va Montmartdag‘i kvartirasining yuqori qavatini gitara yasash ustaxonasiga aylantirdi. Bu yerda u hobbi sifatida gitara ishlab chiqarishni davom ettirdi.

Andalusiya mintaqasi ayniqsa Flamenko gitaralari bilan mashhur. Montero oilasi Granadaning eng muhim ishlab chiqaruvchilaridan biridir. Antonio Marin Montero gitara yasashda Robert Buchedan yordam oldi. Antonio Marin Robert Buche bilan 2 oy ishlagan, Granadaga qaytib kelgach, u Marin/Bouchet ismli modelini Marin/Bouchet yorlig‘i ostida sotuvga shiqardi. Granadada Antonio Marin bu san’atni yonida birga ishlagan boshqa odamlarga o‘rgatgan va bugungi kunda bu ustalar o‘z ustaxonalariga ega. Ular Pako Santyago Marin, Marin Plazuelo kabilardir.

Germaniyada bugungi gitara yasash Hauzerning nomi bilan boshlandi. Hauzer o‘zining muhandislik mahoratini Torresning ixtiolariga qo‘sishimcha qilib olib keldi. Ramirez III Hauzer tomonidan yaratilgan ushbu gitara ustida ko‘p ishladi, lekin u boshqacha tarzda nima qilinganini tushunolmadidi. Shunday qilib, Ramirez-Hauzer musobaqasi boshlandi. Hauzer gitaralari Ramirez gitaralariga qaraganda ancha muvozanatlari va kuchliroq edi. Shu sabablarga ko‘ra, Hauzer gitaralari davrning eng yaxshi gitaralariga aylandi.

Ushbu maqolada aytib o‘tganimizdek, vaqt o‘tishi bilan harbir narsaning ahamiyatliligi va sifatida har doim o‘zgarishlar bo‘lishi mumkinligi haqiqatdir. Hozirgi vaqtida har xil tovush xususiyatlariga ega turli xil gitaralarni topish mumkin. Bu xilma-xillik musiqachilarga o‘z hayolidagi musiqani yaratish uchun turli imkoniyatlarni taqdim etadi.

Yuqorida tilga olingan maktablar mintaqaviy va mamlakat miqyosida joylashganligi sababli, men ushbu maqolaga ko‘plab muhim va qimmatli gitara ishlab chiqaruvchilarni krita olmadim. Qisqacha, Xose Romanillos, Andrea Takki, Sebastian Stenzel, Luidji Lakatto, Gabriela Lodi, Manuel Valazkes, Pol Fisher, Devid Rubio, Kennet Brogger va boshqa ko‘plab nomlarni aytib o‘tish mumkin.

Umid qilamanki, ushbu qimmatli jurnalning maxsus sonida yozgan maqolam siz aziz o‘quvchilar tomonidan zavq bilan o‘qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Annala, H., & Matlik, H. (2007). Handbook of guitar and lute composers. Mel Bay Publications Heck, T. F. (2004). The birth of the classical guitar and its cultivation in Vienna, reflected in the career and compositions of mauro giuliani [Doctoral Dissertation, Yale University]. Scribd. <https://www.scribd.com/document/241086509/>

2. Ko, Y. F. (2009). An analytical and comparative study of franciso tarrega’s two volumes of guitar studies [Doctoral Dissertation, Ball State University]. Scribd. <https://www.scribd.com/doc/248114641/>
3. Madriguera, E. (1993). The hispanization of the guitar: From the guitar lattina to the guitarra espanola [Doctoral Dissertation, The University of Texas].
4. Morris, S. (2005). A study of the solo guitar repertoire of the early nineteenth century [Doctoral Dissertation, Claremont Graduate University]. Scribd. <https://www.scribd.com/document/685282743/>
5. Murphy, M. D. (2006). Elements of style in french baroque guitar music: A survey of the printed sources [Doctoral Dissertation, Shenendoah University]. Shenendoah University.
6. Pennington, N. (1979). The development of baroque guitar music in spain, includinga commentaryon and transcription of santiago de murcia’s “pasacalles y obras”(1732) [Doctoral Dissertation, University Of Maryland]. ProQuest.
7. Russell, C. H. (1981). Santiago de murcia: Spanish theorist and guitarist of the early eighteenth century (with) volume two: Transcription and translation of santiago de murcia’s complete works [Doctoral Dissertation, University of North Carolina].